

## VI. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2023- yil yanvar-dekabr)

	mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	Jamiga nisbatan % da
<b>Jami xizmatlar</b>	<b>17 822,9</b>	<b>111,1</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmati	907,6	120,4	5,1
Moliyaviy xizmatlar	2 965,3	112,3	16,6
Transport xizmati	3 369,3	114,3	18,9
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	2 978,9	109,8	16,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	522,7	109,3	2,9
Savdo xizmatlari	5 520,4	109,1	31,0
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	473,5	105,8	2,7
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	903,4	127,4	5,1
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	402,2	105,2	2,3
Ijara va prokat xizmatlari	291,2	93,0	1,6
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	507,4	105,5	2,8
Boshqa shaxsiy xizmatlar	1 152,0	104,6	6,5
Me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlarva tahlil sohasidagi xizmatlar	194,6	103,2	1,1
Boshqa turdagi xizmatlar	613,3	109,2	3,4

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (31,0 %), transport xizmatlari (18,9 %) moliyaviy xizmatlar (16,6 %), tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,1 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (2,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (2,9 %) tashkil etgan.

### 2023- yil yanvar-dekabr oylarida bajarilgan xizmatlar tarkibi, (% da)



2023- yil yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 17 822,9 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Savdo xizmatlari 109,1 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 31,0 % ni tashkil etdi.

Transport xizmati 114,3 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 18,9 % ni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlar 112,3 % ga oshgan va jami xizmat tarkibida 16,6 % ni tashkil etdi.

Shaxsiy xizmatlar 104,6 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.


Aloqa axborotlashtirish xizmati 120,4 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar 127,4 % ga oshgan bo'lib, va jami xizmat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi**  
(jami hajmga nisbatan, % da)



**Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarilishi**  
(2023- yil yanvar-dekabr, mlrd.so'm)




**Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**  
(2023- yil yanvar-dekabr)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da	Ulushi % da	mlrd. so‘m	2022- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>17 822,9</b>	<b>111,1</b>	<b>100,0</b>	<b>5 878,7</b>	<b>107,0</b>
Namangan sh.	6 863,6	113,3	38,5	9 986,3	110,4
Mingbuloq	718,5	108,2	4,0	5 303,0	105,9
Kosonsoy	978,8	109,1	5,5	4 344,3	106,7
Namangan t.	949,8	108,8	5,3	4 985,7	106,2
Norin	791,7	110,6	4,5	4 544,7	108,5
Pop	1 148,0	110,8	6,4	4 916,4	108,7
To‘raqo‘rg‘on	1 140,7	111,9	6,4	4 707,9	109,3
Uychi	1 156,0	109,1	6,5	5 030,3	106,7
Uchqo‘rg‘on	883,5	109,9	5,0	4 812,3	107,7
Chortoq	984,9	111,8	5,5	4 632,7	109,5
Chust	1 296,3	107,8	7,3	4 587,0	105,7
Yangiqo‘rg‘on	911,1	110,3	5,1	3 883,7	107,8

**Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga**


(2023- yil yanvar-dekabr, ming so'm)



Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Namangan shahrida 6 863,6 mlrd. so'm (113,3 %) va Pop tumanida 1 148,0 mlrd. so'm (110,8 %)ga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Namangan shahrida (9 986,3 ming so'm), Mingbuloq tumanida (5 303,0 ming so'm) va Namangan tumanida (4 985,7 ming so'm) qayd etildi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**



Yuqori o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlar (127,4 %), Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (120,4 %), Yashash va ovqatlanish xizmatlari (109,3 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (88,4 %) egallaydi. Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 11,0 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kurerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,6 % ni tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2023- yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 77,6 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarning (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 16,9 % ga yetdi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, % da**



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,5 % ni egallaydi.



- ▣ Avtomobil va motosikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va motosikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan xolda
- ▣ Ulgurji savdo xizmatlari (Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)
- ▣ Avtomobil va motosikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar